



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

**CLIL YONDOSHUVINING MOHIYATI VA UNING XORIJIY TILLARNI,
XUSUSAN YAPON TILINI O'QITISHDAGI O'RNI**

Oqilova Sevara Sherali qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondoshuvining nazariy asoslari hamda uning xorijiy tillarni, xususan yapon tilini o'qitishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mazmun va tilni integratsiyalashga asoslangan CLIL yondoshuvining talabalar til kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi pedagogik tajriba-sinov metodi orqali o'rganildi. Tajriba ishlari O'zbekiston Jahon tillari universitetining yapon tili yo'nalishida tahsil olayotgan 56 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari CLIL asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish hamda tilni mazmuniy kontekstda ongli o'zlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan xulosalar CLIL yondoshuvini yapon tilini o'qitish amaliyotiga joriy etishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

:CLIL yondoshuvi, mazmun va til integratsiyasi, xorijiy til ta'limi, yapon tilini o'qitish, kommunikativ kompetensiya, fanlararo yondoshuv, oliy ta'lim.

**THE ESSENCE OF THE CLIL APPROACH AND ITS ROLE IN TEACHING FOREIGN
LANGUAGES, WITH SPECIAL REFERENCE TO JAPANESE**

Oqilova Sevara Sherali qizi

Lecturer, Uzbekistan State World Languages University

Abstract

This article examines the theoretical foundations of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach and its role in teaching foreign languages, particularly Japanese. The study explores the effectiveness of CLIL in developing students' language competence through a pedagogical experimental method. The experiment was conducted with the participation of 56 students majoring in Japanese at Uzbekistan State World Languages University. The results demonstrate that CLIL-based instruction significantly contributes to the development of linguistic and communicative competences, increases learners' motivation, and facilitates meaningful language acquisition through content integration. The findings confirm that the CLIL approach represents an effective pedagogical model for teaching Japanese in higher education institutions.

Keywords: CLIL approach, content and language integration, foreign language education, teaching Japanese, communicative competence, interdisciplinary approach, higher education.

**СУЩНОСТЬ ПОДХОДА CLIL И ЕГО РОЛЬ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ, В ЧАСТНОСТИ ЯПОНСКОМУ ЯЗЫКУ**

Окилова Севара Шерали кызы

преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning) и его роль в обучении иностранным языкам, в частности

японскому языку. В рамках исследования эффективность CLIL в развитии языковой компетенции студентов была изучена с применением педагогического экспериментального метода. Экспериментальная работа проводилась с участием 56 студентов направления японского языка Узбекского государственного университета мировых языков. Результаты исследования показали, что занятия, организованные на основе CLIL, способствуют развитию лингвистической и коммуникативной компетенций студентов, повышению их учебной мотивации и осознанному усвоению языка в содержательном контексте. Полученные выводы подтверждают целесообразность внедрения CLIL-подхода в практику обучения японскому языку в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: подход CLIL, интеграция содержания и языка, обучение иностранным языкам, обучение японскому языку, коммуникативная компетенция, междисциплинарный подход, высшее образование.

Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining integratsiyalashuvi sharoitida xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish yetarli natija bermayapti. Ta'lim jarayonida tilni faqat grammatik tuzilma va leksik birliklar majmui sifatida emas, balki real kommunikativ va akademik faoliyat vositasi sifatida o'rgatish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Shu jihatdan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida mazmun va tilni uyg'un holda o'qitishga asoslangan CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondoshuvi alohida ahamiyat kasb etadi. CLIL yondoshuvi xorijiy tilni o'rganishni fanlararo mazmun bilan integratsiyalash orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda til o'rganishning maqsadi o'z-o'zicha emas, balki muayyan fan, madaniyat yoki mavzuni o'zlashtirish jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi. Natijada o'quvchilarda nafaqat lingvistik kompetensiya, balki kognitiv, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalar ham rivojlanadi. Ayniqsa, akademik va kasbiy muloqotga yo'naltirilgan ta'lim tizimlarida CLIL yondoshuvi samarali didaktik model sifatida e'tirof etilmoqda.

Xorijiy tillar qatorida yapon tilini o'qitishda CLIL yondoshuvining ahamiyati yanada dolzarbdir. Yapon tili lingvistik jihatdan murakkabligi, yozuv tizimining ko'p qatlamliligi (kanji, hiragana, katakana), shuningdek, yapon jamiyati va madaniyatiga xos konseptual tafakkur bilan ajralib turadi. Shu sababli yapon tilini o'rganish jarayonida til birliklarini madaniy, ijtimoiy va ilmiy mazmun bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. CLIL yondoshuvi aynan ushbu ehtiyojni qondirib, yapon tilini tarix, madaniyat, texnologiya, iqtisodiyot yoki kundalik hayot kontekstida o'rgatish imkonini beradi. Mazkur maqolada CLIL yondoshuvining nazariy mohiyati, uning didaktik asoslari hamda xorijiy tillarni, xususan yapon tilini o'qitishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, CLIL yondoshuvining yapon tilini o'rganishda til kompetensiyasini rivojlantirish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi o'zni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda mazmun va tilni integratsiyalashga asoslangan CLIL yondoshuvi Yevropa ta'lim makonida XX asr oxirlarida shakllana boshladi. Ushbu yondoshuvning nazariy asoslari va amaliy modellari bir qator yetakchi xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning tadqiqotlari CLILning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

CLIL atamasi va konsepsiyasining ilmiy muomalaga kiritilishi David Marsh nomi bilan bevosita bog'liq. Uning Yevropa Komissiyasi doirasida olib borgan tadqiqotlarida CLIL ikki maqsadli ta'lim modeli sifatida talqin qilinadi, ya'ni bunda fan mazmunini o'zlashtirish va xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish parallel ravishda amalga oshiriladi. Marsh CLILni an'anaviy til o'qitishdan farqli ravishda o'quvchini faol bilish jarayoniga jalb etuvchi innovatsion yondoshuv sifatida baholaydi. CLILning didaktik asoslari va sinf amaliyotiga tatbiqi masalalari Do Coyle tomonidan chuqur tahlil qilingan. Uning mashhur **4C modeli** (Content, Communication,

Cognition, Culture) CLIL ta'limining konseptual poydevorini tashkil etadi. Mazkur modelga ko'ra, til o'rganish jarayoni mazmunni anglash, tafakkurni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Coyle CLILni faqat metod emas, balki kompleks pedagogik paradigma sifatida talqin qiladi. CLILning til kompetensiyalariga ta'siri masalasi Philip Hood va David Marsh hammuallifligida yozilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ularning ishlarida CLIL muhiti o'quvchilarning akademik leksikasi, diskurs kompetensiyasi va funksional til ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi empirik ma'lumotlar asosida isbotlangan. Ayniqsa, fan asosida tashkil etilgan til muhitida o'rganilgan leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishi ta'kidlanadi. Xorijiy tillarni o'qitishda CLILning kognitiv jihatlarini Dalton-Puffer tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Olim CLIL sinflarida o'quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalari – tahlil, taqqoslash, baholash va muammoli fikrlash faolroq namoyon bo'lishini qayd etadi. Bu esa CLILning Bloom taksonomiyasiga mos ravishda yuqori kognitiv darajalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Sharq tillarini, xususan yapon tilini o'qitishda mazmuniy yondoshuvning ahamiyati Hisatsune va Sato tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu olimlar yapon tilini o'rganishda til birliklarini madaniyat, tarix va ijtimoiy kontekst bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, yapon tilining pragmatik va diskursiv xususiyatlarini o'zlashtirish faqat kommunikativ vaziyatlar orqali samarali amalga oshiriladi, bu esa CLIL yondoshuviga to'liq mos keladi. Yapon tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha fundamental ilmiy manbalardan biri Teaching Japanese as a Foreign Language hisoblanadi. Ushbu asarda til va madaniyat integratsiyasi, autentik materiallardan foydalanish hamda fanlararo yondoshuv asosida darslarni tashkil etish zarurligi ilmiy asoslangan. Mazkur qarashlar CLIL yondoshuvining yapon tilini o'qitishdagi metodik imkoniyatlari bilan uyg'unlashadi.

Shuningdek, Yevropa va Osiyo tajribalarini qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlar CLIL yondoshuvining nafaqat Yevropa tillari, balki tipologik jihatdan murakkab tillar, jumladan yapon tili uchun ham samarali ekanini ko'rsatmoqda. Tadqiqotchilar CLIL asosida tashkil etilgan yapon tili darslarida o'quvchilarning motivatsiyasi, tilga nisbatan ijobiy munosabati va mustaqil o'rganish faolligi oshishini qayd etadilar. Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar CLIL yondoshuvining xorijiy tillarni, xususan yapon tilini o'qitishda nazariy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan esa yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Bu esa mazkur yondoshuvni yapon tilini o'qitish amaliyotiga tatbiq etishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda CLIL yondoshuvining xorijiy tillarni, xususan yapon tilini o'qitishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida **pedagogik tajriba-sinov metodi** qo'llanildi. Ushbu metod ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshuvni joriy etish va uning amaliy natijalarini ilmiy asosda baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Jahon tillari universitetining yapon tili yo'nalishida tahsil olayotgan **56 nafar talaba** ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotda qatnashgan talabalar til tayyorgarligi darajasi jihatidan bir xil akademik bosqichda bo'lib, bu holat tajriba natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida yapon tili darslari CLIL yondoshuvi asosida tashkil etildi. Ya'ni, til o'rgatish jarayoni yapon madaniyati, jamiyati, tarixiy va zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga oid mazmun bilan integratsiyalashgan holda olib borildi. Dars mashg'ulotlarida til vositasi fan mazmunini o'zlashtirishning asosiy quroli sifatida qo'llanildi, bu esa talabalarni yapon tilida mantiqiy fikrlash, tushunish va muloqot qilishga undadi. Tajriba davomida talabalar yapon tilidagi autentik matnlar, mavzuga oid vizual va axborot materiallari bilan ishladilar hamda muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlarni bajarish orqali til kompetensiyalarini rivojlantirdilar. Ushbu jarayonda talabalar faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, ularning kommunikativ faolligi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi. Tajriba-sinov natijalarini aniqlashda talabalar bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Olingan natijalar CLIL yondoshuvi asosida tashkil etilgan yapon tili mashg'ulotlari talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, mazmuniy kontekstda o'rganilgan til birliklarining mustahkam o'zlashtirilishi va kommunikativ vaziyatlarda erkin qo'llanilishi tajriba natijalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Shunday qilib, pedagogik tajriba-sinov metodi asosida olib borilgan ushbu tadqiqot CLIL yondoshuvining yapon tilini o'qitish jarayonida yuqori didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

Tahlil va natijalar

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida CLIL yondoshuvi asosida tashkil etilgan yapon tili mashg'ulotlarining samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot O'zbekiston Jahon tillari universitetining yapon tili yo'nalishida tahsil olayotgan 56 nafar talaba ishtirokida o'tkazilib, ularning til kompetensiyalaridagi sifat va miqdoriy o'zgarishlar tajriba oldi va tajriba yakuni ko'rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida talabalar yapon tilini o'zlashtirish darajasi diagnostik baholash orqali aniqlandi. Baholash mezonlari sifatida leksik-grammatik bilimlar, matnni tushunish, og'zaki nutq faolligi hamda mazmuniy kontekstda fikr bildirish ko'nikmalari olindi. Tajriba yakunida esa ushbu ko'rsatkichlar CLIL yondoshuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijasida qayta baholandi.

1-jadval

Talabalarning yapon tili kompetensiyasi darajalarining tajriba oldi va tajriba yakuni bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlari (n = 56)

Kompetensiya darajasi	Tajriba oldi (%)	Tajriba yakuni (%)
Yuqori	17,8	39,3
O'rta	46,4	42,9
Past	35,8	17,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba-sinov boshlanishida talabalar orasida past darajadagi til kompetensiyasiga ega bo'lganlar salmoqli ulushni tashkil etgan. CLIL yondoshuvi asosida olib borilgan mashg'ulotlardan so'ng esa yuqori darajadagi kompetensiyaga ega talabalar ulushi deyarli ikki baravarga oshgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa sezilarli kamaygan.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, yapon tilini fan va madaniy mazmun bilan integratsiyalashgan holda o'qitish talabalar tomonidan til birliklarini ongli va funksional o'zlashtirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, mavzuga oid autentik materiallar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalar nutq faolligini oshirib, ularning kommunikativ ishonchini mustahkamladi. Talabalar yapon tilida nafaqat tayyor konstruksiyalarni qo'llash, balki mazmunli fikr bildirish va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga intildilar. Shuningdek, tajriba jarayonida talabalar motivatsiyasining oshgani, dars mashg'ulotlarida faol ishtirok etish ko'rsatkichlarining yaxshilangani kuzatildi. CLIL yondoshuvi talabalarda yapon tilini o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirib, tilni real bilim va axborotni egallash vositasi sifatida qabul qilishlariga imkon yaratdi. Umuman olganda, tahlil natijalari CLIL yondoshuvi asosida tashkil etilgan yapon tili mashg'ulotlari talabalarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot CLIL yondoshuvining xorijiy tillarni, xususan yapon tilini o'qitishdagi pedagogik samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot davomida mazmun va tilni integratsiyalashga asoslangan ushbu yondoshuv an'anaviy til o'qitish modellari bilan qiyoslanganda talabalar til kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori natija berishi aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Jahon tillari universitetining yapon tili yo'nalishida tahsil olayotgan 56 nafar talaba ishtirokida o'tkazildi. Olingan natijalar CLIL yondoshuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning leksik-grammatik bilimlari, og'zaki nutq faolligi hamda mazmuniy kontekstda fikr bildirish ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qilganini ko'rsatdi. Ayniqsa, yuqori darajadagi til

kompetensiyasiga ega talabalar ulushining oshishi ushbu yondoshuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida CLIL yondoshuvi talabalar o'rganilayotgan tilni real bilim va axborotni egallash vositasi sifatida qabul qilishlariga imkon yaratgani, bu esa ularning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirgani aniqlandi. Yapon tilini madaniy, ijtimoiy va fan mazmuni bilan integratsiyalashgan holda o'qitish talabalarning tilni ongli va funksional o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, CLIL yondoshuvi yapon tilini o'qitish jarayonida samarali pedagogik model sifatida namoyon bo'lib, u talabalarning lingvistik, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mazkur yondoshuvni oliy ta'lim muassasalarida yapon tilini o'qitish amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Development Trajectory. — Córdoba : University of Córdoba, 2012. — 120 p.
2. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. — Cambridge : Cambridge University Press, 2010. — 173 p.
3. Dalton-Puffer C. Discourse in Content and Language Integrated Learning (CLIL) Classrooms. — Amsterdam : John Benjamins Publishing Company, 2007. — 310 p.
4. Mehisto P., Marsh D., Frigols M. J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. — Oxford : Macmillan Education, 2008. — 238 p.
5. Genesee F., Lindholm-Leary K., Saunders W., Christian D. Educating English Language Learners: A Synthesis of Research Evidence. — Cambridge : Cambridge University Press, 2006. — 550 p.
6. Cook V. Second Language Learning and Language Teaching. — 4th ed. — London : Hodder Education, 2008. — 312 p.
7. Hinkel E. Teaching Academic ESL Writing: Practical Techniques in Vocabulary and Grammar. — Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 2004. — 395 p.